

105. 6 sonini ko'paytirish va 6 ga ko'paytirish

Yondosh mavzu:
axloq.




Ko'paytuvchi, ko'paytma.

Sehrli kvadratni shunday to'ldiringki,
har bir satr va ustunda joylashgan
sonlar yig'indisi 60 ga teng bo'lsin.

17		19
	20	
21		

1. Maktab oshxonasida bitta stol atrofida 6 kishi o'tirishi mumkin.
Nur yordamida 3 ta; 4 ta; 5 ta stol atrofiga nechta odamni
o'tqazish mumkinligini aniqlang.



2. Har bir stolga 6 ta qoshiq q'oyish kerak. Agar 6 ta stolni
hozirlash zarur bo'lsa, hammasi bo'lib nechta qoshiq kerak?



6 ga ko'paytirish jadvali

<i>a</i>	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$a \cdot 6$	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60

3. Hisoblang.

$$(7 \cdot 6) + (6 \cdot 4) \quad (8 \cdot 6) - (6 \cdot 3) \quad 150 - (6 \cdot 9)$$

$$(5 \cdot 6) + (8 \cdot 2) \quad (6 \cdot 10) - (3 \cdot 7) \quad 100 - (4 \cdot 3)$$

4. Qulay usul bilan hisoblang.

$$28 + (8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8)$$

$$90 - (9 + 9 + 9 + 9 + 9 + 9)$$

$$93 + (6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6 + 6)$$

$$111 - (6 + 6 + 6 + 6)$$

105. 6 sonini ko'paytirish va 6 ga ko'paytirish




5. Sxemani daftaringizga ko'chirib chizing, uni to'ldiring va masalani yeching.

Ta'tilda yuqori sinf o'quvchilari boshlang'ich sinf xonalarining 6 ta partasini va yuqori sinf xonalarining 3 marta ko'p partasini ta'mirlashdi. Ular hammasi bo'lib nechta partani ta'mirlashgan?

B:  Y:  ?



6. Tanaffusda bolalar kubik va fishkalar bilan stol o'yini o'ynashdi. Madina kubikni 3 marta tashladi. Kubikda 6, 5 va 6 sonlari tushdi. Madina bittada uyiga yetib olishi uchun kubikda necha tushishi kerak?
Madina yo'lda nechta tanga yig'ib oldi?



7. Patnisda 6 ta go'shtli va 2 marta ko'p kartoshkali somsa bor. Patnisda hammasi bo'lib nechta somsa bor?



8. Hisoblang va xushmuomalalilik, o'zini tutish qoidalariiga amal qilishlik qanday atalishini bilib oling.

K $(6 \cdot 3) + 89$

O $(7 \cdot 3) - 6$

B $120 - (9 \cdot 6)$

D $(4 \cdot 6) + 40$

L $93 - (2 \cdot 6)$

I $32 + (6 \cdot 5)$

15	64	15	66	81	62	81	62	107
----	----	----	----	----	----	----	----	-----